

# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

8  
2023



Tosh o'rmoni  
(Navoiy viloyati)

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti

- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja

ISSN: 2992-8982



# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinnbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Elektron nashr. 426 sahifa, 30-avgust, 2023-yil.

Muharrir:

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyatni rahbari

Toshkulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lif, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rinnbosari

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinnbosari

Sharipov Qo'ng'irotboy Avazimbetovich, t.f.d., prof., TDIU rektori

Oblamuradov Narzulla Naimovich, i.f.n., dots., O'zR Tabiat resurslari vaziri o'rinnbosari

Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich, Qoraqalpog'iston Respublikasi Tabiat resurslari qo'mitasi raisi

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlis qonunchilik palatasi deputati

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinnbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori

Xudoqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMB birinchi prorektori

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlari va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Maqsud Abdullayevich, p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori

Karimov Norboy G'aniyevich, i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori

Hakimov Nazar Hakimovich, f.f.d. TDIU profesor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasи professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinnbosari

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktaranti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'onan davlat universiteti dotsenti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU Ilmiy tadqiqotlar va

innovatsiyalar departamenti rahbari

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq Markazi xorijiy hamkorlik bo'yicha mutaxassis

Ekspertlar kengashi:

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d., TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Imomqulov To'lqin Burxonovich, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,

O'zR Tabiat resurslari vazirligi,

O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

JSTga a'zolik Yangi O'zbekistonni jahon iqtisodiyotiga olamshumul integratsiyalashtiradi .....	6
<b>Muxiddin Kalonov</b> , i. f. d., professor	
O'zbekistonda ipakchilik sanoatining rivojlanish strategiyalari samarasi.....	11
<b>Jumayev Olimjon Sadulloyevich</b> , tadqiqotchi	
"Yashil" iqtisodiyot va uni shakllantirish masalalari.....	18
<b>Yokubjanov Doniyor Islom o'g'li</b> , tayanch doktorant	
Suv ta'minot korxonalarining biznes jarayonlari bo'yicha	
asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI)ni baholash.....	24
<b>Saidakbarov Xusniddin Abdisalomovich</b> , PhD	
O'zbekiston fond bozorida investorlarning pul mablag'larini	
jalb qilish mexanizmlaridan foydalanish.....	27
<b>Karimov Akramjon Ikromjon o'g'li</b> , PhD	
Ishchi kuchi bozorining amal qilish metodologiyasi .....	34
<b>Mamaraximov Bekzod Erkinovich</b> , i. f. n., dotsent	
Yashil turizmni rivojlanish va takomillashtirish istiqbollari.....	39
<b>Normurodova Zebo Eshmaxmatovna</b> , kafedra o'qituvchisi	
Suv resurslaridan foydalanishning samaradorligini baholashga yondashuvlar.....	44
<b>Axmedov Sayfullo Normatovich</b> , t. f. n., mustaqil tadqiqotchi	
Samarqand viloyatida xizmat ko'rsatish sohasining holati va	
innovatsion rivojlanish tendensiyalari tahlili.....	50
<b>Berdiyev Anvar Abduraxmonovich</b> , tayanch doktorant	
Mamlakatimizda markaziy bank monetar siyosatini amalga oshirishning amaliy holati .....	56
<b>G'aybullayeva Zilola Raxmatullo qizi</b> , mustaqil tadqiqotchi	
Tijorat banklari kapitalidagi mavjud davlat ulushlarini kamaytirish .....	61
<b>Olimjanova Nigora Alisherovna</b> , mustaqil izlanuvchi	
Infratuzilmaviy investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda islam moliya bozorining roli.....	65
<b>Saydirasulov Laziz Alimovich</b> , doktorant	
Balansning tarkibiy tuzilishi va unga ta'sir etuvchi omillar .....	71
<b>Tulayev Mirzakul Salamovich</b> , kafedra dotsenti; <b>Axmedov Akbarali Sultonmurodovich</b> , i. f. n (PhD)	
Интеграция современных информационных систем в аудит бюджетных организаций .....	78
<b>Урдабаев Жарылқап Ермекбаевич</b> , независимый исследователь	
Формирование и использование ресурсного потенциала промышленных предприятий.....	83
<b>Махмудов Носир Махмудович</b> , д. э. н., профессор; <b>Фозилова Фирангиза Комиловна</b> , докторант	
Qishloq xo'jaligi ekinlarining yovvoyi ajdodlarini genofond sifatida asrash va ulardan samarali	
foydalanish zarurati.....	89
<b>Sherali Xolliyev</b> , kafedra o'qituvchisi	
Turizmnı rivojlantirishda axborot texnologiyalarning o'rni .....	94
<b>Yuldasheva Dilnoza Ulugbekovna</b> , mustaqil tadqiqotchi	
Sanoat klasterlarini tashkil etish va boshqarishning o'ziga xos jihatlari.....	99
<b>Xakimov Ziyodulla Axmadovich</b> , dotsent; <b>Axmadova Rayxona Jasurbek qizi</b> , tadqiqotchi	
"Universitet-ishlab chiqarish" integratsiyasi sharoitida oliy o'quv yurtlarining	
innovatsion rivojlanishini boshqarishning nazariy qoidalari.....	103
<b>Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi</b> , iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent	
Farmatsevtika sanoati raqobatbardoshligini oshirishda farmatsevtikaga ixtisoslashgan	
erkin iqtisodiy zonalardan foydalanishning xorij tajribasi.....	108
<b>Abdiyeva Flora Botir qizi</b> , tayanch doktorant	
Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga ilmiy yondashuvlar .....	114
<b>Abdullahayev Farxod Ozodovich</b> , mustaqil tadqiqotchi	
Budget-soliq va pul-kredit siyosatini muvofiqlashtirishda fiskal va	
monetar qoidalardan foydalanishning nazariy jihatlari .....	119
<b>Hakimjon Hakimov</b> , tadqiqotchi	
Analyzing the Impact of External Debt on The Financial Security of the Country .....	125
<b>Sanakulova Barnogul Rizakulovna</b> , Doctor of Economic Science, Professor;	
<b>Jamolov Mirzabek Mirjalil ugli</b> , Senior researcher	



Sanoat korxonalarining iqtisodiy o'sishi va barqaror rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari.....	129
<b>Avloqulova Sadoqat Sobirjon qizi</b>	
Digital Advertising Oasis: Qatar's E-Marketing Revolution .....	133
<b>Mirziyo Sodikov Odiljon o'g'li</b>	
Tikuv-trikotaj korxonalari faoliyatida marketing tadqiqotlaridan foydalanishning SWOT tahlili .....	138
<b>Ro'zmamatov Abbas Tolibjon o'g'li</b> , magistrant	
Xorijiy investitsiyalar oqimiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash uchun ekonometrik regression model tuzish.....	144
<b>Saydullayev Azamat Jo'raqul o'g'li</b> , tayanch doktorant	
Eksport – mamlakat iqtisodiy o'sishiga ta'sir etuvchi asosiy omil sifatida .....	151
<b>Sharifi Ahmad Sakhrob</b> , mustaqil izlanuvchi	
Роль цифровизации туристической отрасли в повышении её экспортного потенциала страны .....	156
<b>Суюнова Фотима Баходир кизи</b> , базовый докторант	
Surxondaryo viloyati iqtisodiyotiga kiritilgan xorijiy investitsiyalar prognози .....	161
<b>Xatamov Nurbek Ochildeyevich</b> , erkin tadqiqotchi	
Inson kapitalini oshirishda xodimlarni o'qitish va rivojlantirishning o'rni.....	169
<b>G'aniyeva Dilnoza Baxriddin qizi</b> , doktorant	
Совершенствование порядка исчисления и уплаты акцизного налога в Узбекистане .....	174
<b>Жуманиязова Феруза</b> , PhD, доцент	
Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankidan investitsiya jalg qilish imkoniyatlari.....	179
<b>Mamatov Bahromjon Shavkatovich</b> , dotsenti, PhD	
Davlat-xususiy sherikligini rivojlantirishning xorijiy tajribalari.....	184
<b>Mamayusupova Dilovarxon Begmatovna</b> , mustaqil izlanuvchi, i. f. f. d. (RhD)	
Banklar moliyaviy barqarorligini ta'minlashda makroprudensial siyosatning o'rni.....	190
<b>Nilufar Sharipova</b> , PhD	
Dunyoda qorako'l teriga bo'lgan talabning pasayishi: sabab va oqibatlar .....	197
<b>Nurillayev Jamoliddin Yarashevich</b> , doktorant, i. f. n., dotsent	
Mehnat resurslarini faoliyatini tashkil etishning mezonlari va ko'rsatkichlari.....	201
<b>O'roqov Mamurali Odil o'g'li</b> , tayansh doktarant	
Biznes loyihalarini moliyalashtirishning xorij tajribasi .....	208
<b>Razzaqov Jasur Hamraboievich</b> , dotsent, PhD	
Сравнительный анализ методов оценки финансирования инновационных разработок предприятие.....	212
<b>Рузиева Дилноза Абдусаматовна</b> , независимый исследователь	
IPOning muvaffaqiyatlilik darajasini aniqlash metodikasini takomillashtirish yo'llari .....	216
<b>Saydullayev Shaxzod Sherzodovich</b> , PhD	
Источники финансирования стартап-проектов и способы их привлечения .....	222
<b>Хажиев Бахтиёр Душабоевич</b> , dotsent, iqtisodiyot fanlari nomzodi	
Tashqi iqtisodiy munosabatlar sharoitida tashqi savdo va bojxona mexanizmlarini tartibga solish masalalari .....	227
<b>Adizov Sardor Rashidovich</b> , mustaqil izlanuvchi	
Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash strategiyasini ishlab chiqish .....	231
<b>Mamatov Sardor Axmatjonovich</b> , mustaqil tadqiqotchi	
Malayziya iqtisodiyotida Islom kapital bozori ahamiyatining tahlili.....	238
<b>Abrorov Sirojiddin Zuxriddin o'g'li</b> , PhD	
Анализ современного состояния предприятий топливно-энергетического комплекса Узбекистана .....	243
<b>Мирзахалилова Азизахон Алишеровна</b> , докторант	
Moliyaviy savodxonlik orqali fond bozori savdolarida institutslonal investorlar faolligini oshirish .....	249
<b>Sultanov Maxmud Axmedovich</b> , dotsent, PhD	
Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tashqi bozorlarga yetkazib berishda tijorat standartlarining o'rni .....	254
<b>Xojiyev Elshod Yoqub o'g'li</b> , PhD; <b>Fayzullayev Shuhrat Sherali o'g'li</b> , tayanch doktorant	
Особенности использования системно-процессного менеджмента в развитии зеленой экономики .....	259
<b>Отакулов Махамаджон Каримович</b> , PhD, и.о. доцент	
Milliy turizm tarmog'ida raqobat ustunliklarini aniqlashning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati .....	264
<b>Xalilov Sirojiddin Sherali o'g'li</b> , PhD	
Sut mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalarida "yashil marketing" strategiyalari.....	268
<b>Eshmatov Sanjar Ashirqulovich</b> , mustaqil tadqiqotchi, i.f.f.d.(PhD)	



O'zbekiston Respublikasida kredit mexanizmini takomillashtirish imkoniyatlari.....	272
<b>Gadoyev So'hrob Jumakulovich</b> , PhD, dotsent	
Vliyanie investitsionnoj politiki na innovacionnuyu deyatel'nost' v Respublike Koreya.....	277
<b>Алимова София Розумбаевна</b> , nezavisimyyi issledovatel'	
Hududlarda oliv ta'lim va mehnat bozori integratsiyasi yo'naliшlarini takomillashtirish.....	282
<b>Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich</b> , tayanch doktorant	
Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy potensialni rivojlantirish.....	290
<b>N. N. Ismatullayeva</b> , tayanch doktarant	
Mahalliy byudjet daromadlari shakllanishi va muammolarining amaliy holati va tahlili.....	293
<b>Ollokulova Feruza Mansurovna</b> , PhD	
Temir yo'l transportidan samarali foydalanishning ekonometrik tahlili.....	298
<b>Shakarova Dilfuza Ruzimuratovna</b> , tayanch doktorant	
Formirovaniye kreditnogo portfela sovremenennogo kommercheskogo banka.....	304
<b>Жураева Нодира Фузулий кизи</b> , assistent kafedry	
Logistika kompaniyalarida yuklarni sug'ortalashni takomillashtirish yo'llari .....	310
<b>G. Abduvosidova</b> , kafedra o'qituvchisi	
Tumanlar va tadbirkorlikning rivojlanish darajalarini baholash uslublari.....	315
<b>Nazarov Shohbek Isroilovich</b> , magistrant	
Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash strategiyasini ishlab chiqish.....	320
<b>Mamatov Axmetjon Atajanovich</b> , professor; <b>Allaberganova Zakir Gayibovich</b> , dotsent	
Moliya tizimini barqarorlashtirishda mahalliy budgetlarning imkoniyatlarini oshirish masalalari.....	327
<b>Ollokulova Feruza Mansurovna</b> , PhD; <b>Eshonqulov Asliddin Mammatmurod o'g'li</b> , magistrant	
Byudjetdan tashqari mablag'lari samaradorligini oshirishda davlat xaridlarining roli .....	330
<b>Norov Akbar Ruzimamatovich</b>	
Fond bozorini rivojlantirishning mamlakat iqtisodiy o'sish jarayonlari bilan bog'liqligi .....	335
<b>Xoliqov Ulug'bek Rustamovich</b> , t.f.n.	
Sun'iy intellektning tijorat banklari samaradorligiga ta'siri: xorijiy tajriba .....	341
<b>N.N.Ro'ziyev</b>	
O'zbekistonda turizmni rivojlantirishda investitsion loyihalarni jalg qilishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....	350
<b>Astanov Sherzod Rustamovich</b> , mustaqil tadqiqotchi	
Assessing the Impacts of Modern Models for Increasing Textile Product Exports through Green Strategies.....	356
<b>Nosirova Charos</b>	
MDH mamlakatlarida islom moliyasini rivojlanish istiqbollari.....	364
<b>Irgasheva Gulbahor Sodiqovna</b> , tayanch doktorant	
Qayta ishlash sanoati korxonalarini iqtisodiy samaradorligini oshirishning zamonaviy yo'llari .....	369
<b>Abduxamidova Gulxayo</b> , tadqiqotchi	
Mintaqa iqtisodiyotiga kiritilayotgan xorijiy investitsiyalar statistik tahlili .....	374
<b>Xatamov Nurbek Ochildeyevich</b> , erkin tadqiqotchi	
Mezhduanal'nyi opyt razvitiya regionov putem privlecheniya investitsii cheres rynek kapitala.....	380
<b>Dadahanova Saida Makhhammadxon kizi</b> , doktorant	
Iskusstvennyi intellekt kak instrument upravleniya chelovecheskimi resursami .....	386
<b>Xайдарова Малика Шакирджановна</b> , prepodavatel' kafedry	
Surxondaryo viloyatida kichik tadbirkorlik rivojlanishining iqtisodiy-statistik tahlili .....	396
<b>S.T.Toshaliyeva</b> , PhD	
Jahon Savdo Tashkiloti faoliyatasi va unga a'zo bo'lish xususida.....	403
<b>Ruzibayev Jahongir Nodirovich</b> , tadqiqotchi	
Xufiyona iqtisodiyot ulushining oshishi O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy xavfsizligiga bevosita tahdid sifatida.....	407
<b>Nabiiev Feruz Nurmurodovich</b> , tadqiqotchi	
Anoerob qayta ishlash jarayonini elektr impulsli ishlov berish .....	412
<b>Imomova Nodira Shavkatovna</b> tadqiqotchi, <b>Sultonov Mansur Qilichevich</b> PhD	
Milliy transport infratuzilmasini takomillashtirish.....	416
<b>Xashimova Naima Abitovna</b> , i.f.n., professor; <b>Ergashev Shoxrux Vosiljon o'g'li</b> assistent	
Korxonalar faoliyatida internet – marketing texnologiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslar.....	421
<b>M.A.Saparova</b> , talaba	



# DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGINI RIVOJLANTIRISHNING XORIJIY TAJRIBALARI

**Mamayusupova Dilovarxon Begmatovna**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi,  
i. f. f. d. (RhD)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada dunyo mamlakatlarda davlat-xususiy sherikligini rivojlanterish yo'llari, xalqaro tashkilotlar tomonidan ushbu mexanizmni amalga oshirish chora-tadbirlari va xorijiy olimlarning ushbu mexanizm bo'yicha olib borgan tadqiqotlari to'g'risida ilmiy fikr-mulohazalar yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** davlat-xususiy sherikligi, loyiha portfeli, GDA modeli, etuklik egri chizig'i, xalqaro moliya va donorlik tashkilotlari.

**Abstract:** This article contains scientific opinions on the ways of development of public-private partnership in the countries of the world, the measures of implementation of this mechanism by international organizations, and the research conducted by foreign scientists on this mechanism.

**Key words:** Public-private partnership, project portfolio, GDA model, maturity curve, public finance and wisdom organization.

**Аннотация:** В данной статье собраны научные мнения о путях развития государственно-частного партнерства в странах мира, мерах реализации этого механизма международными организациями, а также исследований, проведенных зарубежными учеными по этому механизму.

**Ключевые слова:** государственно-частное партнерство, портфель проектов, модель GDA, кривая зрелости, государственные финансы и организация мудрости.

## KIRISH

Xorijiy rivojlangan mamlakatlarda davlat-xususiy sherikchiligi – (DXSh) ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlanterishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan, amaliyotda keng qo'llanilib kelinayotgan mexanizmlardan sanaladi. Mamlakatimizda DXShiga asosida iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, davlat xizmatlari sifatini hamda tabirkorlik muhitini yaxshilash, xususiy sektorning moliyaviy mablag' bilan ta'minlash masalalarini hal qilishda keng qo'llanilmogda.

Mazkur yo'nalishda amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra DXSh foydalanilmagan zahiralarini safarbar qilish va resurs bazasini kengaytirish, davlat va jamoatchilik mulkini boshqarish samaradorligini oshirishning asosiy mexanizmlaridan biri ekanligi o'z tasdig'ini topdi. Bu kabi hamkorlik yangi hodisa bo'lib, u davlat va biznesning o'zaro ta'sirini kengaytirish jarayonlarini aks ettirishga xizmat qiladi.

Jahonda globallashuv va raqobatning keskinlashuvi sharoitda davlat mulkini boshqarishga xususiy kapital jalb etish davlat idoralari va biznesning moliyaviy munosabatlarini faollashtirishga imkoniyat yaratmoqda [1]. Natijada davlat sektoriga qo'shimcha resurslarni jalb etish, byudjet taqchilligini bartaraf etish, davlat boshqaruvi salohiyati va xo'jalik yuritishdagi xususiy tamoyillar, investitsiyalar, menejment, innovatsiyalarini birlashtirish imkoniyati yaratildi.

Ma'lumki, globallashuv va keskin raqobatchilik sharoitida ijtimoiy loyihalarning kapital sig'imi yuqori va aksariyat hollarda norentabel bo'lganligi tufayli, ular byudjet mablag'lari evaziga moliyalashtiriladi va natijada bu davlatning moliyaviy majburiyatlarini oshishiga sabab bo'ladi. Bu kabi muammolarni echimi sifatida DXSh asosida korporativ va xususiy biznesning mablag'larini jalb etish maqsadga muvofiqdir. Xulosa qiladigan bo'lsak, ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalarni moliyalashtirishda davlat va xususiy kapitalning o'zaro nisbat va munosabatlari bo'yicha ilg'or davlatlarning tajribalarini chuqur tadqiq qilgan holda mamlakatimiz iqtisodiy salohiyatidan kelib chiqib bizga xos va mos samarali tizimlarni ishlab chiqish talab etiladi.



Chunki DXSh asosida moliyalashtirishni samarali tashkil etish, mablag'lardan unumli foydalanish, vujudga kelishi mumkin bo'lgan tavakkalchiliklarni maqbul taqsimlash, muhim ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni tezkor va ijobjiy hal etishni ta'minlaydi [2].

DXSh mexanizmining amal qilish jarayonida yuzaga keluvchi muammolar, DXSh shartnomasi obyektlari bo'lgan mulklarni samarali boshqarish, moliya-kredit mexanizmi va manbalari, moliyalash jarayoni va shakli, loyiha amalga oshirilishidagi yuzaga keluvchi xatarlar hamda erishiladigan natijalar, ularni baholash mezonlarini, davlat ixtiyoriga o'tkazishdagi mavjud muammolarni ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etish lozim.

## TADQIQOTNING MAQSADI

Ushbu maqolamizni yozish uchun olib borilgan tadqiqot ishimizning maqsadi davlat-xususiy sherikligi va uni rivojlantirish bo'yicha xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalarini tahlili o'rganishdan iborat.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xorijiy tajribalarni o'rganish jarayonida aniqlanishicha, DXSh turli xalqaro moliya tashkilotlari, xorijiy va milliy iqtisodchi olimlar ilmiy tadqiqotlarda turli talqinlarda namoyon bo'ladi. Jumladan, Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (IHRT) DXShga davlat va xususiy sheriklarning kelishivi sifatida qarab, bu davlatning xizmatlarni taqdim qilish va xususiy investorning foyda olishga imkon yaratuvchi hamda riskni to'g'ri taqsimlanishini ta'minlovchi mexanizm sifatida talqin qiladi.

M. B. Jerard DXSh ijtimoiy xizmatlar yoki davlat sektori aktivlarini boshqarishni yaxshilash uchun xususiy kapitalani va ba'zan davlat kapitalini uyg'unlashtirishni anglatadi [3] deb ta'kidlaydi. Bu davlat xizmatlari natijalari e'tibor qaratish asosida tavakkalchilikni boshqarishda an'anaviy ravishda davlat sektori tomonidan amalga oshiriladigan xaridlarga nisbatan ancha murakkab va tejamkor yondashuvni taklif qiliшади.

Xalqaro Valyuta jamg'armasi tomonidan berilgan ta'rifda esa "DXSh – an'anaviy tarzda davlat tomonidan ta'minlanadigan infratuzilma aktivlari va xizmatlarini xususiy sektor tomonidan taqdim etishga qaratilgan kelishuvdir" [4] deb ta'riflanadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy mushohada, absrakt-mantiqiy fikrlash, suhbat, statistik, iqtisodiy, moliyaviy, korrelyatsion-regression tahlil, ekspert baholash usullaridan foydalanilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Ilmiy adabiyotlar va izlanishlarda DXShni turlicha talqin qilinishi uning aniq bir ta'rifi mavjud emasligiga sabab bo'lmoqda. Ammo keng ma'noda DXShni davlat va xususiy sektorning o'rta va uzoq muddatli kelishivi sifatida qarash mumkin, unga ko'ra, ijtimoiy sohaga tegishli va davlat tomonidan ta'minlanadigan ba'zi xizmatlarni aynan aniq infratuzilmasi yoki xizmatlari bilan xususiy sektor tomonidan ta'minlanishga imkoniyat yaratiladi [5].

Shuningdek, "DXShning umumqabul qilingan ta'rifi mavjud emas. Umumiylar qilib aytganda, ushbu tushuncha davlat hokimiyyati bilan biznes o'rtaqidagi moliyalashtirishni ta'minlash, qurilish, modernizatsiyalash, boshqarish yoki infratuzilmani saqlab turish yoki xizmatlarni taqdim qilish bo'yicha o'zaro kooperatsiyaga tegishli" [6] deb qaratildi.

Yevropa Ittifoqi tomonidan qabul qilingan qonunga ko'ra quyidagi elementlar DXShni tavsiflaydi [7]:

- DXSh loyihasini amalga oshirish bo'yicha davlat va xususiy sherik o'rtaqidagi hamkorlikning nisbatan uzoq davomiyligi;
- hamkorlikni amalga oshiruvchi turli subyektlar o'rtaqidagi o'zaro bitimlarga ko'ra loyihaning bir qismini xususiy sektor tomonidan moliyalashtirish usuli. Shunday bo'lishiga qaramasdan davlat mablag'lari ba'zi hollarda ancha katta miqdorga ega bo'ladi;
- loyihaning turli bosqichlarida (loyihalash, yakunlash, amalga oshirish, moliyalashtirish) ishtiroy etadigan iqtisodiy subyektlarning muhim roli. Ijtimoiy sherik, birinchi navbatda jamoat manfaatlari, ko'rsatilayotgan xizmatlarning sifati va narx siyosati nuqtayi nazaridan erishiladigan maqsadlarni aniqlashga e'tiborni qaratadi va ushbu maqsadlarga muvofiqligini nazorat qiladi;
- davlat zimmasiga yuklangan tavakkalchilikni DXSh o'rtaqidagi taqsimlash. Biroq DXSh sharti xususiy sherik barcha tavakkalchilikni, hatto loyiha bilan bog'liq bo'lgan tavakkalchilikning asosiy qismini o'z zimmasiga olishini anglatmaydi. Tavakkalchilikni aniq taqsimlash, tegishli tomonlarning ushbu xavfni boshlash, boshqarish va unga qarshi kurashish qobiliyatiga muvofiq holda aniqlanadi.



Bundan tashqari, Elning mintaqaviy siyosat bo'yicha komissiyasi "DXShni an'anaviy tarzda davlat sektori tomonidan amalga oshirilib kelingan va moliyalashtirilgan investitsiya loyihalarining xususiy sektorga berilishi" [8] deb ta'riflaydi.

BMT talqiniga ko'ra DXSh – davlat sektori tomonidan ishlab chiqariladigan va taklif qilinadigan xizmatlarni moliyalashtirishni, rejalashtirishni, amalga oshirish va obyektlarni ishlatalishni uzoq muddatga xususiy sektorga taqdim qilinishini ta'minlash (ba'zan 30 yilgacha), tavakkalchilikni xususiy investorga o'tkazish, davlat va mahalliy tuzilmalar bilan huquqiy shaxslarning ko'p qirrali uzoq muddatli shartnoma shakllarini amalga oshirilishi bilan farqlanishi keltirildi [9].

Bundan tashqari, ilmiy va iqtisodiy adabiyotlarda DXShning davlatning ijtimoiy obyektlarga nisbatan ayrim boshqaruv vakolatlarini nazarda tutuvchi [10], an'anaviy davlat xizmatlarini bajarish uchun xususiy sektorni jalg qiluvchi [12], milliy va xalqaro, keng miqyosli va mahalliy, ammo har doim o'ta muhim va davlat uchun ijtimoiy ahamiyati yuqori loyihalarini amalga oshirish bo'yicha davlat va biznes ittifoqi [13], konsessiya va operatsion lizingga asoslangan, transport, ko'priq, tunnel, kasalxona, mакtab va boshqa ijtimoiy infratuzilmalar uchun tuziladigan hamkorlik [14], u yoki bu korxonani tashkil qilishdagi tavakkalchilik va naflarni taqsimlash bo'yicha o'zaro munosabatlar [15], davlat tashkilot va xususiy kompaniya o'tasida tavakkalchilik va daromad, mas'uliyat va majburiyatlarni taqsimlash bo'yicha kelishuv [16], davlat manfaatlari yo'lida strategik natijalarga erishish uchun amalga oshiriladigan o'rta va uzoq muddatli davlat-xususiy sektor munosabatlari [17], DXSh predmeti davlat va munitsipial mulkdan, hamda hokimiyat organlari, byudjet sektori tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlardan tashkil topuvchi davlatning xususiy sektor bilan keng iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha munosabatlari [18], xususiylashtirish mumkin bo'limgan – ko'priq, avtomobil magistral yo'llari, truba quvurlari, aerodrom, portlari kabi strategik obyektlarini davlat mulkida qoldirib, xususiy sektorga uzoq muddatli ijara berish bilan bog'liq munosabatlar, mintqa uchun umumiqtisodiy manfaatlarga erishish va dolzarb vazifalarin yechishga qaratilgan muhim munosabatlar, davlatning biznesga hukm o'tkazib, iqtisodiyotga chuqr aralashuvini emas, balki u bilan hamkorlikda, loyihalar bo'yicha maslahatda ishlashini ko'zda tutuvchi, davlatning iqtisodiy siyosatining umumiy maqsadlariga erishish bo'yicha munosabatlar kabi minglagan talqinlarini uchratishimiz mumkin.

Bugungi kunda DXSh mexanizmidan foydalanish va uni qo'llashni rivojlanishining uch bosqichi farqlanadi. Ya'ni birinchi bosqichda DXShdan foydalanish bo'yicha qaror qabul qilish hamda huquqiy assoslarni shakllantirish masalalari, loyihalar portfelini shakllantirish tajribalardan foydalanish, bozorni shakllantirish masalalariga e'tibor qaratiladi. Ikkinci bosqichda esa qonunchilikdagi islohotlarni davom ettirish, DXSh muammolarini o'rganish asosida yangi modellarini shakllantirish hamda DXSh bozorini rivojlantirish, moliyalashtirishning yangi manbalarini izlab topish masalalari qarab chiqiladi. Uchinchi bosqichda yaxlit tizimni shakllantirish, huquqiy to'siqlarni to'liq bartaraf etish, kafolatlangan loyihalar portfelini shakllantirish, moliyalashtirish manbalarining barcha yo'nalishlaridan foydalanish kabi qator masalalarga e'tibor qaratiladi (1-jadvalga qarang).

Natijada keltirilgan uchala bosqichda keltirilgan vazifalardan kelib chiqqan holda mamlakatda DXSh mexanizmini shakllantirishning mavjud holatiga baho berish imkoniyati mavjud bo'ladi, bu esa istiqbolda rivojlanishning ustuvor yo'nalishlarini belgilab olishga xizmat qiladi.

#### 1-jadval: DXSh rivojlanishining uch bosqichi

Birinchi bosqich	Ikkinci bosqich	Uchinchi bosqich
<ul style="list-style-type: none"> <li>Siyosiy qarorlarni qabul qilish</li> <li>Amaldagi qonunlarga muvofiqligini tekshirish</li> <li>Loyihalar portfelini shakllantirish</li> <li>Asosiy tushunchalarni ishlab chiqish</li> <li>Oldingi tajribani boshqa tarmoqlarda qo'llash bozorni shakllantirishning boshlanishi</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>qonunchilik islohotini o'tkazish</li> <li>strategik va amaliy qo'llanmalarni nashr etish bilan shug'ullanadigan ixtisoslashtirilgan tuzilmalarni yaratish</li> <li>DXSh muammolari</li> <li>DXSh modellarini takomillashtirish</li> <li>DXSh bozorini rivojlantirishni rag'batlantirish</li> <li>Loyiha portfelini kengaytirish va boshqa tarmoqlarni qamrab olish</li> <li>molialashtirishning yangi manbalarini jalg qilish</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>to'liq, yaxlit tizimni yaratish</li> <li>huquqiy to'siqlarni bartaraf etish</li> <li>DXSh modellarini takomillashtirish va takrorlash</li> <li>Xatarlarni har tomonlama taqsimlash</li> <li>Kafolatlangan loyihalar portfelini shakllantirish</li> <li>Uzoq muddatli siyosiy konsensusni yaratish</li> <li>molialashtirish manbalarining barcha arsenalidan foydalanish</li> <li>Pensiya va xususiy ulush fondlarini qamrab oladigan infratuzilma obyektlari uchun investitsiya bozorini yaratish</li> <li>Davlat va munitsipal muassasalarning yaxshi o'qitilgan xodimlari tomonidan DXSh tajribasidan foydalanish.</li> </ul>

Manba: Muallif ishlanmasi.



Hududlardagi turistik ahamiyatdagi kichik obyektlarni aniqlash, ularning turistik jozibadorligini oshirish hamda yo'nalishi jihatidan eng yaqin joylashgan yirik turistik manzil yoki obidalarning sayohat-tashrifiy dasturiga qo'shib borish orqali hudud turistik salohiyatini oshirishga erishish mumkin.

DXShni rivojlantirish amaliyoti bir qator xalqaro va milliy tashkilotlar tomonidan, jumladan, Jahon banki, BMT, IRHT, EI doirasida muvofiqlashtirilib tartibga solib turiladi.

Xalqaro rivojlanish bo'yicha AQSh agentligining dasturlarini (USAID) amalga oshirish doirasida ham 2001 yilda Rivojlanish bo'yicha Global Alyans tashkil etildi (ingl. The Global Development Alliance, GDA). GDA modeli rivojlanayotgan mamlakatlarga DXSh mexanizmi orqali yordam berishning samarali usuli sifatida qo'llanildi.

GDA modelining mohiyati AQSh hukumati tajribalari va texnik bilimlarini qo'llagan holda davlat va xususiy korporatsiyalar, jamg'armalarning moliyaviy mablag'lari jalb qilishdan iborat edi. GDA modelining maqsadi – rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy o'sishni, tadbirkorlikni rivojlantirishni, sog'liqni saqlashni, ekologik muammolarni hal qilishni, aholining ta'lim va texnologiyalarga egalik qilishini rag'batlantirishdan iborat.

2013 yilda GDA modeli doirasida USAID xususiy sektor bilan 200 dan ortiq sherikchilik bitimlarini imzoladi. Xususan, o'tgan yillar davomida GDA modeli yordamida AQShda 3,5 mingdan ortiq turli sherikchilik tashkilotlari tomonidan 1,5 mingdan DXSh kelishuvlari imzolandi va ularning umumiyligi qiymati 20 mlrd. AQSh dollaridan ko'proq davlat va xususiy jamg'armalariga teng bo'ldi. Ushbu portfel USAID ning har bir dollariga sherikchilik badallari orqali qo'shimcha 3 dollar mablag'lar jalb qilishga imkon berdi.

DXSh munosabatlari turli davlatlarda har xil shakllarda amalga oshiriladi. Xususan, DXSh AQShda transport qatnovlarini takomillashtirish, infratuzilmani modernizatsiyalash, maishiy-texnik chiqindilarni utilizatsiyalash, suv resurslaridan foydalanish sohasida "Vuy Amerisan" tamoyili asosida, BRIKS mamlakatlarda DXSh konsessiya bitimlari sifatida, xususan, ishlab chiqarish, qishloq xo'jalik, kommunal-maishiy infratuzilma, xom ashyo konlarini o'zlashtirish sohasida, XXRda DXShning boshlang'ich bosqichlari 1980–1990 yillarda boshlangan bo'lib, asosan loyihalarni boshqarish mexanizmlarini shakllan-tirishda davlat ishtirokining yuqori darajasi bilan ajralib turadi.

Shuningdek, XXRda ommaviy ravishda BOT (Build–Operate–Transfer, – ingl. "qurilish-foydalanish-topshirish") loyihalarining amalga oshirilishi xorijiy investitsiyalar jalb qilinishining faollashuviga, infratuzilmani yaxshilashga, hukumatning moliyaviy yukini yengillashuviga olib keldi. O'tgan asrnning 90-yillari boshlarida DXShni ham BOT loyihalarining ham huquqiy asoslarini takomillashtirish boshlandi.

Hindistonda DXSh yordamida 2012-yilda hukumat katta hajmdagi don mahsulotlarini saqlashda quvvatlar etishmasligi kabi keskin muammoni konsessiya kelishuvi orqali yechish mexanizmini sinab ko'rди. Hindiston dunyoda yuqori daromadli tibbiy turizm bozori bilan ham ajralib turadi va shuning uchun ham Hindiston turizm vazirligi DXSh salohiyatidan davlat uchun an'anaviy bo'lgan sog'lomlashtirish tizimlari uchun foydalanishga intiladi (masalan, Ayurveda, Siddha, yoga). Shuning uchun ham, Hindiston hukumati tomonidan DXSh asosida tibbiyotni davlat sektorini xususiy sektor tomonidan qo'llab-quvvatlash orqali sog'liqni saqlash infratuzilmasini takomillashtirish asosida yuqori sifatli tibbiy xizmatlar taqdim etish bo'yicha yangi modelni qabul qilgan.

Yevropa mamlakatlarda DXShni qo'llash tajribasi asosan loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlaridan foydalanish va rivojlantirish bian bog'liq. Masalan, Standard & Poor's baholashiga va Yevropani rivojlantirishning turli rejalariga ko'ra, 2020 yilgacha bo'lgan muddatda Yevropada infratuzilmaga 1,5–2 trillion evro miqdorida investitsiyalarini jalb qilish talab qilinadi va bu esa o'z navbatida uchinchi tomon sifatida kredit tashkilotlarini sherikchilik asosida qo'shishni talab qiladi.

EI mamlakatlarda ushbu yo'nalishda Yevropa investitsiya banki (EIB) muhim rol o'ynaydi va ko'pincha DXSh loyihalarini moliyalashtirishda yetakchi kredit tashkiloti sifatida maydonga chiqadi. EIB tomonidan inqirozgacha temir yo'l transporti sohasida bir qator loyihalar amalga oshirilgan edi. Xususan, Oresund tarmog'i (Daniya, Shvetsiya), HSL Zuid yuqori tezlikli magistrali (Niderlandiya), TONNEL RAIL LINK temir yo'l tunneli (Buyuk Britaniya).


Bir so'z bilan aytganda, DXSh mexanizmi ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalarni amalga oshirishda davlat va xususiy sektor o'tasidagi o'zaro manfaatli hamkorlik sifatida har xil shakllarda amalga oshiriladi.

AQShning "Deloitte & Touche LTD" konsalting xizmatlari markazi tomonidan DXShning rivojlanishining 1-rasmda keltirilgan uch bosqichidan o'tish imkoniyati rivojlanish hamda faoliyat darajalari asosida mamlakatlar kesimida tadqiq qilib o'tilgan.

*Birinchi bosqichda* bo'lgan Janubiy Afrika, Braziliya, Finlandiya, Meksikada boshqalarga qaraganda faoliyat darajasi ancha keng ekanligini ko'rish mumkin.

*Ikkinci bosqichda* bo'lgan AQSh, Kanada, Germaniya, Ispaniya, Fransiya, Yaponiyada faoliyat darajasi yuqori ekanligi aniqlangan.

*Uchinchi bosqichda* Buyuk Britaniya, Avstraliya va Irlandiya davlatlari keltirilgan bo'lib, bu yerda aynan Buyuk Britaniyada rivojlanish darajasi ham faoliyat darajasi ham yetarli darajada katta ekanligini ko'rish mumkin.



1-rasm: DXSh bozorining “etuklik egri chizig‘i” [18]

Biroq shunday bo‘lishiga qaramasdan DXSh bozorining “Etuklik egri chizig‘i”ning chap tomonidan joylashganligi uning faoliyat darajasi majud imkoniyatidan to‘liq foydalanilmayotganligini ko‘rsatadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda mamlakatimizda DXShdan foydalanish yo‘nalishlariga qisqacha to‘xtalib o‘tmooqchimiz. Hozirda O‘zbekistonda DXShning zamonaviy va istiqbolli vositalari qatoriga investitsiya fondlari, O‘zbekiston tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi, davlat ulushi bo‘lgan aksionerlik jamiyatlari va boshqa davlat korporatsiyalari hamda kompaniyalarini kiritish mumkin.

## XULOSA

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish agentligi DXSh sohasidagi vakolatli davlat organi bo‘lib, DXSh sohasida davlat siyosatini amalga oshiradi, davlat dasturlarini ishlab chiqadi, amalga oshiradi, DXSh loyihalarining konsepsiyalarini ishlab chiqishda vazirliklarga, davlat qo‘mitalariga, idoralarga, mahalliy davlat hokimiyyati organlariga ko‘maklashadi, investorlar, xalqaro moliya va donorlik tashkilotlari, ilmiy va ekspert hamjamiyatlari, shuningdek, DXShning boshqa ishtirokchilari bilan hamkorlikni tashkil etadi, DXSh uslubiy hujatlarni, qo‘llanmalar va yo‘rinnomalarni tayyorlaydi.

Mamlakatda DXSh mexanizmini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlashni yana bir muhim vositalaridan biri – O‘zbekiston Respublikasining investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi bo‘lib iqtisodiyot uchun strategik ahamiyatga ega va uzoq muddatli amalga oshirish muddatlari bilan farqlanuvchi loyihalarni amalga oshirishda xususiy biznesga har tomonlama imkoniyatlar yaratadi.

So‘nggi yillarda DXSh rivojlanayotgan davlatlarda yangi tushuncha emas, balki birlamchi iqtisodiy tushunchaga aylandi. Chunki, bu tushuncha davlat idoralarining tashkiliy va bozor infratuzilmasiga mustahkam kirib bormoqda. Jumladan, O‘zbekistonda ham DXSh asosida rivojlanayotgan korporativ boshqaruv tuzilmalarining soni tobora ortib, bu boradagi qonunchilik ham bosqichma-bosqich takomillashtirilib borilmoqda.



### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Азарян А. А. Развития ГЧП в сфере услуг. <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=44268339>
2. Толстоброва Н. А., Кожемякин Л. В. Исследование форм и условий развития государственно-частного партнерства в отечественной практике <https://cyberleninka.ru/article/n/issledovanie-form-i-usloviy-razvitiya-gosudarstvenno-chastnogo-partnerstva-v-otechestvennoy-praktike>
3. Gerrard M. B. What Are Public-Private Partnerships, and How Do They Differ from Privatisations? // Finance & Development. 2001. Vol. 38.
4. Public-Private Partnerships. International Monetary Fund, 2004.
5. <http://rrr.worldbank.org/public-private-partnerships/what-are-public-private-partnerships>
6. Green Paper on Public-Private Partnerships and Community Law on Public Sector Contracts and Subsidies. Brussels. 30. 04. 2004. R. 3.
7. Green Paper on Public-Private Partnerships and Community Law on Public Sector Contracts and Subsidies. Brussels. 30. 04. 2004. R. 3.
8. [http://es.eurostat.ec.europa.eu/regions\\_and\\_structures/publications/guides/rrr\\_en.rdf](http://es.eurostat.ec.europa.eu/regions_and_structures/publications/guides/rrr_en.rdf)
9. Практическое руководство по вопросам эффективного управления в сфере ГЧП/ Организация Объединенных Наций – Нью-Йорк и Женева, 2008. ISBN: 978-92-1-4160403
10. Maskin, E., Tirole, J., Public-private partnerships and government spending limits. // International Journal of Industrial Organization 26 (2008) p. 412-420.
11. Yongjian, K., Xinring, L., Shouqing, W., Equitable Financial Evaluation Method for Public-Private Partnership Projects // Tsinghua Science and Technology, Volume 13, №5, Oct. 2008, pp. 702-707.
12. История развития ГЧП// АО “Фонд устойчивого развития “Казына”. – Казахстан, Астана, 2008. –<http://www.kazyna.kz>; Счетная палата Российской Федерации. Аналитическая записка по результатам экспертно-аналитического мероприятия “Анализ эффективности реализации крупномасштабных проектов и программ в субъектах Российской Федерации на условиях государственно-частного партнерства.
13. Акитоби Б., Хемминг Р., Шварц Г. Государственные инвестиции и государственно-частные партнерства// Вопросы экономики. 2007. №40.
14. Снельсон П. Государственно-частные партнерства в странах с переходной экономикой// Право на этапе перехода, № 6956, 2007.
15. Roles, finance & management for public-private partnerships /ed. by Akintola Akintoye & Matthias Besk, Blackwell Publishing Ltd, 2009., p. 124.; Gosudarstvenno-chastnoe partnerstvo: problemy i perspektivy. Press-reliz/ IA "LIGABiznesInform". – Ukraine, Kiev. 6 iyunya 2008 g.
16. Использование концессии как формы государственно-частного партнерства для реализации крупных предпринимательских проектов в автодорожной отрасли РФ. Отчет по научно-исследовательской работе/НОУ “Московская международная высшая школа бизнеса “МИРБИС”. – М.: ИРБИС, 2007.
17. Государственно-частное партнерство: теория и практика/ В. Г. Варнавский, А. В. Клименко, В. А. Королев и др. // Гос. ун-т – Высшая школа экономики. – М.: Изд. дом ГУ-ВШЭ, 2010. – 287 с.
18. Deloitte and Touche USA LLP ([https://unesco.org/DAM/seis/publications/rrr\\_r.rdf](https://unesco.org/DAM/seis/publications/rrr_r.rdf))



**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2023. № 8**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Тел.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№566955 reestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi 26-uy.

